

O'ZBEKISTON HUDUDIDA KULOLCHILIKNING
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

R.Axmedov

*Kamoliddin Behzod nomli Milliy rassomlik va Dizayn instituti
Amaliy bezak san'ati kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: badiiy kulolchilik cheksiz estetik va funksional imkoniyatlarga ega. Uning badiiy va texnik fazilatlaridan arxitektura, monumental va dekorativ san'at, haykaltaroshlik va dizaynda foydalanish mumkin. Boy tarixiy tajriba kulolchilik arxitektura bilan sintezning murakkab muammolarini hal qilishga tobe ekanligiga ishoniradi. Zamonaviy san'atda barcha rassomlar uchun ishlatiladigan materiallarning xilma-xilligiga bo'lgan intilish tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda.

Аннотация: художественная керамика обладает неограниченными эстетическими и функциональными возможностями. Его художественно-технические качества могут быть использованы в архитектуре, монументально-декоративном искусстве, скульптуре и дизайне. Богатый исторический опыт уверяет, что керамика подлежит решению сложных задач синтеза с архитектурой. В современном искусстве все более проявляется стремление к разнообразию материалов, используемых всеми художниками.

Abstract: artistic ceramics have unlimited aesthetic and functional possibilities. Its artistic and technical qualities can be used in architecture, monumental and decorative art, sculpture and design. Rich historical experience assures that ceramics can solve complex problems of synthesis with architecture. In contemporary art there is an increasing desire for a variety of materials used by all artists.

Kalit so'zlar: kulolchilik, sir, angob, gil, badiiy, sanoat, rassom, hunarmand, kulolchilik

Ключевые слова: керамика, промышленность, художник, ремесленник, керамика

Keywords: pottery, glaze, angob, clay, artistic, industrial, artist, craftsman, pottery

Tarixdan ma'lum bo'lishicha inson qo'l mehnati orqali yaratilgan asarlar katta qadr qimmatga ega bebaho mo'jiza desak mubolag'a bo'lmaydi. Kulolchilik eng birinchi san'at turlaridan biri bolib shakkangan. Mezalit davrida paydo bolib hozirgacha taraqqiy topib bormoqda. Hozirgi kunda esa haqiqiy san'at durdonasiga aylandi. Shu tufayli hozirga qadar bunday san'at asarlari qadr topib kelmoqda, san'atning qaysi sohasidan bo'lishidan qat'iy nazar.

Qariyb uch mingyillik tarixga ega yurtimizda ko'plab san'at arboblari, qomusiy

olimlar va usta hunarmandlar yetishib chiqqan, ularni qoldirgan boy ma'naviy merosini yosh avlodga yetkazish va bilimlarini yuksaltirish maqsadida ko'plab ilmiy ishlar ustida izlanishlar olib borilib, samarali mehnat qilingan va salmoqli natijalarga erishilib kelinmoqda. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirish, xususan, navqiron avlodni san'atga oshno etish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, iste'dodli yoshlarni aniqlash va rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirishni yanada qo'llab-quvvatlash, xalq ijodiyoti sohasiga aholining keng qatlamini, shu jumladan yoshlarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadida ushbu qaror ishlab chiqildi.

Bu farmonga ko'ra xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi rivojiga doir ko'plab amaliy ishlar va bu borada ilg'or chora tadbirlarni amalga oshirish, o'sib kelayotgan yosh va navqiron avlodga milliy o'zligimizni anglashda, uni targ'ib qilishda xalq hunarmandchiligini o'rnini ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga ko'maklashish lozimligini taqazo etadi. Shuni aytish kerakki, O'zbekistonni taraqqiyoti uchun yetuk mutaxassis, fan, madaniyat va san'at sohasida va eng yaxshi kadrlar tayyorlash va mukammal tizimni shakllantirishga katta ahamiyat qaratilgan.

Xalq hunarmandchiligini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston tasviriy va amaliy san'atining yirik arboblarni birlashtiruvchi hamda madaniyat, me'morlik, tasviriy va amaliy san'at, san'atshunoslik, dizayn, muzeyshunoslik, ilmiy metodik tashkilotyurtimiz badiiy hayotining markazi, O'zbekiston badiiy Akademiyasi tashkil qilindi.

O'zbekiston Badiiy Akademiyasining asosiy faoliyati, vazifasi milliy va badiiy kadrlarni tayyorlash, tasviriy va amaliy san'at ustalariga g'amxorlik qilish, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, yosh iste'dodlarni kashf qilish, ko'rgazmalar uyushtirish, milliy an'analarni rivojlantirish, badiiylik asosida yuksak ma'naviy tarbiya berishga yo'naltirilgan.

Shuningdek, bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-fevraldagi 77-sonli qaroridan so'ng respublikamizning barcha viloyatlarida tasviriy, amaliy san'at va xalq hunarmandchiligini yanada rivojlantirishga yoshlarga katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Bu esa yosh avlodni ma'naviyatini madaniyatini yuksaltirish, qanday ulug' shaxslar avlodidan ekanligini ongiga singdirish, va kelajakni ishonchli qo'llarga topshirish maqsadida olib borilayotgan izchil islohotlarning bir namunasidir¹.

“Ta'lim to'g'risida”gi Davlat qonunida ta'limning ravnaqi uning insonparvarligi, ta'lim-tarbiya tizimining uzluksizligi, izchilligi, davlat ta'lim tizimining ilmiyligi va dunyoviyliigi, bu jarayonda umuminsoniy va milliy qadriyatlarning ustuvorligi, davlat ta'lim standartlari doirasida hammaning ta'lim olishi uchun keng

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-fevraldagi 77-sonli qarori

imkoniyatlar yaratilishi bilan belgilanadi.

Shuni aytish kerakki mustaqillikka erishilgandan so'ng amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijasi besamar ketmadi. Bu yurtimiz yoshlarining qo'lga kiritayotgan ko'plab yutuqlari, mukofot va erishgan mavqelarida o'z aksini topmoqda.

Xususan o'g'il-qizlarimiz davlat stipendiyalariga sazovor bo'lib, ko'rik tanlov g'olib va g'olibalariga aylanishmoqda, xorij davlatlarida davlat granti asosida ta'lim olib, nafaqat san'at balki sport, fan olimpiadalarida yuksak cho'qqilarni zabt etib kelishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi haqida farmonini imzoladi². Harakatlar strategiyasi mamlakatimizning barcha soha vakillari qatorida madaniyat, xususan san'at ahli uchun keng imkoniyat yaratish barobarida, zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak bu soha taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab beradi deyish mumkin.

Davlat rahbarimiz boshchiligida yoshlarimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga urg'u berilyapti. Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, san'atga oshufta qilib tarbiyalash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi.

Shu bois prezident tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, davlat rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiysohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutilgan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021-yillarda "Harakatlar strategiyasi"

Mazkur 5 tashabbus keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Endilikda ushbu tajribani yurtimizning barcha hududlarida keng joriy qilinmoqda. Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman va shaharlarda madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha san'atga doir 1,5 mingta to'garak tashkil etish vazifasi qo'yilgan edi, bular bugungi kunda o'z natijasini bermoqda. Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" tashkil qilinmoqda.

Taniqli san'atkor va iste'dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko'makchi sifatida biriktirish yaxshi natija berayotganini inobatga olib, bu tajriba butun mamlakatga yoyildi. Taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida biriktirilib, o'sha joylarda madaniyat va san'atni rivojlantirishga mas'ul bo'lib, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam berib kelishmoqda.

Bu tashabbus tufayli musiqa va san'at sohasida oliy ma'lumotli kadrlarni ko'paytirish masalasiga ham e'tibor qaratilgan. Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi vazirliklariga muayyan mavzular bo'yicha tarix darslarini muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjo va teatrlarda sayyor o'tkazilishini tashkil qilish topshirilgan. Bir so'z bilan aytganda hozirda yurtboshimiz boshchiligida san'at ahliga, hunarmandlarga juda katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Hunarmandchilikka berilayotgan yuksak e'tiborning yana bir yaqqol namunasi qilib 2019-yil Qo'qon shahrida o'tkazilgan Xalqaro hunarmandlar festivalini misol qilib keltirsak bo'ladi.

Qo'qon shahrida 14 sentabr kuni birinchi Xalqaro hunarmandchilik festivalining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev barchani chin yurakdan qutlab, yurtimizga, ushbu anjumanga bo'lgan katta hurmat va e'tibori uchun xorijiy mehmonlarga tashakkur izhor etdi. Bu haqida Prezident matbuot xizmati xabar qildi.

Umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi bo'lgan xalq amaliy san'ati dunyodagi har bir xalq hayotida, uning turmush tarzi va qadriyatlari rivojida alohida o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. D.A.Faxretdinova. Dekarotivno - prikladnoye iskustvo Uzbekistana.-1972.
2. Xaytmetov D. [Development of students' art creative talents in applicable decorative classes.](#) – Web of scinttist: international scientific research journal, 2021. – P. 167-171.
3. S. Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. —T.: Mehnat, 1991

4. “O‘zbekiston san’ati – yoshlar nigohida” – T.: “Extremum Press”, 2009
5. Rempel L. I. Arxitekturny ornament Uzbekistana. Tashkent, 1961.
6. To‘raevich, X. D. (2023). Pedagogical and psychological foundations of the development of artistic and creative abilities of students in the practice of decorative and applied art. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 18, 158-160.
7. Tashxodjayev Sh. S. Xudojestvennaya polivnaya keramika Samarkanda IX - nach. XIII vv. Tashkent, 1967. 92-93 6.
8. Pugachenkova G. A. Iz xudojestvennoy sokrovio‘nitsq Srednego Vostoka. Tashkent, 1987. 48-6.
9. Sayko. E.V. Texnika i texnologiya keramichkskogo proizvodstva Sredney Azii v istoricheskom razvitii, Moskva-1982 g, 10-12s.
10. To'raevich, X. D. (2023). DEKORATIV VA AMALIY SAN'AT AMALIYOTIDA TALABALARNING BADIY VA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 31(1), 85-88.